

INGLIZ TILINI O‘RGATISHDAGI XATO VA KAMCHILIKLAR

Isroilova Shoxida Dexqonovna

Farg`ona shahar yuridik texnikumi yuristlar
uchun ingliz tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada xorijiy tilni o‘rgatishdagi muammolar, so‘zlashuv jarayonida yo‘l qo‘yiladigan grammatik xatolar va ularning tahlili bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: old qo‘shimchalar, artikllar, frazeologik fe‘llar va idiomalar, motivatsiya, metodika, aspekt, xotira, talaffuz.

KIRISH

Ingliz tilini o‘rganayotganda oldimizda ko‘ndalang turib qoladigan muammolarni o‘rgandim. Ular asosan quyidagilardan iborat ekan: 1) tilni o‘zlashtirishda eng qiyini old qo‘shimchalar, artikllar, frazeologik fe‘llar va idiomalar bo‘lib, ular bir qarashda har qanday mantiqqa zid keladi va ulardan foydalanishda juda ko‘p chigalliklar mavjud; 2) tilni o‘rganishda motivatsiyaning yetarli emasligi; 3) til o‘rganayotgan kishining o‘zida shunga nisbatan kuchli ishtiyoq bo‘lishi kerak; 4) xorijiy tilni o‘zlashtirish bo‘yicha mukammal metodikaning yo‘qligi; 5) o‘zlashtiruvchi kishining atrofi shunga qulaylik va imkoniyat berguvchi muhit bilan qurshalmagani...

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Endi ana shu aspektlarga oid fikr-mulohazalarimni batafsil bayon etishga kirishaman. Avvalo aytish joizki, har qanday til boshqa bir til bilan qiyosan o‘rganilganda unumli bo‘ladi. Afina va Ispaniya parlamentlarida amaliyot o‘tab qaytgan deputatlarimiz, o‘sha yurtning parlamentarlari ikki yoki undan ortiq xorijiy tillarda bimalol so‘zlashishlarini ta’kidlagan edilar.

Bu amaliyot bizning tariximizda bo‘lgan. Bobolarimiz kamida uchta tilda bimalol so‘zlashganlar. Yurt ravnaqi, davlatning qudrati, o‘sib kelayotgan avlodning intellektual salohiyati ham, qaysidir ma’noda shu narsa bilan belgilanadi. Yangilangan O‘zbekiston sharoitida yana shu muammo kun tartibidan joy olgani bejizga emas. Zotan, davlatmiz rahbari 2021 yilning 6 may kuni “chet tillarini o‘qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari” yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida:

“Biz raqobatdosh davlat qurishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o‘quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat’iy talab har bir ta’lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim”, – deya ta’kidlagan edilar.

Xususan, muayyan bir xorijiy tilda so‘zlashuvchi kishilar uchun umumiy bo‘lgan bir muammo old va ort qo‘shimchalar, fe’llarning turlari singari unsurlarni qo‘llashdagi qiyinchilik bo‘lib hisoblanadi. Hattoki, rus tilida muayyan bir tajribaga ega bo‘lgan kishilar ham (okonchanie) affiks, perefiks va suffikslarni qo‘llash amaliyotida oqsab qolganlariga ko‘p bor duch kelganman. Binobarin, rus tilida ham, o‘zbek tili grammatikasida ham hozirgi, kelgusi va o‘tgan zamon fe’li mavjud. Ingliz tilida passiv ovoz bilan birgalikda 26 vaqt guruhi mavjud. Mabodo uni oddiy bayon tarzida o‘rgatish amaliyoti qo‘llansa, u kerakli natijani bermasligi mumkin. Shuning uchun tilni tilga chog‘ishtirib o‘rganish tajribasi muhim ahamiyatga ega. Mutaxassislarining ta’kidlashicha, aslida, ingliz tilida rus tiliga qaraganda kamroq chalkashlik bor ekan. Agar ana shu tafovvut to‘la anglansa, nutqda ham, jumlar qurishda ham hech qanday muammo bo‘lmaydi.

Til o‘rganishda ham asosiy omillardan biri – kishida motivatsiya masalasi. Bir kichik misol ustida to‘xtalmoqchiman. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, juda ko‘p yurtdoshlarimiz tirikchilik g‘amida Rossiya davlatiga keta boshlashdi. Odamlar orasida, ularga munosabat masalasida yagona bir to‘xtam yo‘q. “Rossiyaga borish shart emas, kishi rizqini shu yerda ham topishi mumkin” deyishadi. Lekin, shu o‘rinda “Yigitning rizqi qaerda sochilgan bo‘lsa, o‘sha yerdan teradi” degan gap borligini unutib qo‘yamiz. Shundan yoshlarimizga, “Bolam, taqdirning taqozosi bilan o‘rusning mamlakatiga borib ishlashingga to‘g‘ri kelar, har ehtimolga qarshi tilini puxta o‘rganib qo‘y” deyilmaydi. Vaholanki, ana shunday motivatsiya berilganida juda ko‘p kishilarimiz rus tilini o‘zlashtirgan bo‘lishardi.

Xuddi shu fikrni ingliz tilini o‘zlashtirayotganlarga ham tadbqiq qilishimiz mumkin. Xo‘sh, bugun o‘zini qiynab, jonini halak qilib o‘rganayotgan bu til, oxir-oqibat unga nima beradi? Agar, dunyoda keng tarqalgan xalqaro muomala tili ekani haqidagi almisoqdan qolgan ta’rifni takrorlasak – befoyda. Bu til orqali uni o‘zlashtirayotgan kishining oldida qanaqa imkoniyatlar eshigi ochilishi mumkinligini ro‘y-rost ko‘rsata bilish lozim. Misollar bilan uni ishontirish darkor. O‘shanda uning ishtiyoqi oshadi.

Kishida kuchli ishtiyoq paydo qilish uchun avvalo unda havas uyg‘ota bilish kerak.

Havasi alangalasa ishtiyogi kuchayib boradi. Biz kunda-kunora markaziy telekanalarda, internet saytlari orqali qaysidir bir chet ellik bilan bo‘lgan intervyuga ko‘zimiz tushib qoladi. Tarjima subtitr tarzida yoki matn ortidan o‘qib eshittiriladi. Nega, degan savol tug‘iladi. Shu o‘rinda tarjimonning ishtiroki ta‘minlansa bo‘lmasmidi? Uning har ikki tilda ravon so‘zlashi, tarjima mahorati qancha-qancha yoshlarda havas uyg‘otgan bo‘lardir. Bu esa unda xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini puxta o‘rganish ishtiyogini hosil qilishi muqarrar ekanini ta‘kidlashga hojat bo‘lmas kerak.

Har bir fan o‘zining o‘qitish metodikasiga ega. Busiz bir natijaga erishish qiyin. O‘zimizning o‘zbek adabiyoti tarixi va umuman adabiyot fanini o‘rganishda ham shunga oid kamchilik bor. Fanlar bizni shoirning she‘riyati qolib shaxsiyati haqida ko‘p narsa o‘qishga undaydi. Agar bizni, umuman kimning qalamia mansub bo‘lishidan qat‘iy nazar g‘azallarni ifodali o‘qish metodikasini, undan nimalarni uqish, fikrni ifoda etish uslublarini chuqur o‘rganganimizda edi – tamoman boshqacha bir natijaga erishardik.

XULOSA VA MUNOZARA

Shunday ekan, til o‘rganishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan kishi, qat‘iyatlik bilan unga bor kuch va g‘ayratini safarbar qilsa, tevarak- atrofini qurshab turgan muhit shunga xizmat qilsa dururst bo‘ladi. Buning uchun avvalo uning o‘zi, atrofida ana shu muhitni his etishi kerak. Ustozlar esa, birinchi navbada, til o‘rgangan kishi ham moddiy-ham ma‘naviy ro‘shnolikka erishishi haqidagi kuchli mativatsiyani unga singdirishi lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Toxirova, M. O. Z. (2023). FIZIKA FANINING BOSHQA FANLAR BILAN O‘ZARO ALOQADORLIGI VA FANLARARO BOG‘LANISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(16), 787-790.
2. Otaqo‘ziyevna, T. M. (2023). Fizika Ta‘limi Mazmunini Takomillashtirish Va Samaradorligini Oshirishning Integral Pedagogik Texnologiyalari. Miasto Przyszłości, 42, 225-226.
3. Аликулова, М. Ш. (2023). ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАССКАЗОВ АЛЕКСАНДРА

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Issue 1. January 2024

КУПРИНА. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(12 Part 2), 172-174.

4. Артыкбаева, З. А. (2015). Методика обучения решению геометрических задач. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (2-2), 59-63.

5. Artikbayeva, Z. A., & Egamova, G. A. (2022). Boshlang 'ich sinf ona tili darsliklarida so 'z birikmasi yuzasidan berilgan bilimlar tahlili. Science and Education, 3(2), 734-739.

6. Allayarovna, A. Z. (2022). Using a Competency-Based Approach to Conducting Circle Classes in Mathematics Lessons. Journal of new century innovations, 15(1), 7-11.

7. Artikbayeva, Z., Abdumajitova, M., Umirova, M., & Jo'Rayeva, D. (2023). EDUCATIONAL TECHNOLOGIES AS AN EFFECTIVE METHOD IN THE MEANINGFUL ORGANIZATION OF PRIMARY SCHOOL MATHEMATICS LESSONS. Science and innovation, 2(B3), 70-72.

8. Aliyeva, N., & qizi Shodiyeva, G. N. (2023). INGLIZ TILIDA SO 'Z TURKUMLARI TASNIFI MASALALARI SHARHI. SCHOLAR, 1(13), 22-27.

9. Navruza, A. (2023). INGLIZ TILI MORFOLOGIYASIDA SOZ TURKUMLARINI ORGANISH ZARURIYATI. ITALY" ACTUAL PROBLEMS OF SCIENCE AND EDUCATION IN THE FACE OF MODERN CHALLENGES"., 14(1).

10. Habibullaevna, A. N. Structural features of substantive, adverbial and verbal phrases in the English, Russian and Uzbek languages. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD).

11. Aliyeva, N. (2021). MODERN CONCEPTS OF STUDYING PHRASEOLOGISMS IN THE FRAMEWORK OF FRAME REPRESENTATION AND THEORY OF CONCEPTUAL METAPHOR. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES, 2(12), 206-211.

12. Aliyeva, N. (2021). ИЗОМОРФИЗМ АНГЛИЙСКИХ КОЛЛОКАЦИЙ И ФРАЗЕМ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ С УЧЕТОМ ПЕРЕХОДНОСТИ ЗНАЧЕНИЯ. Журнал иностранных языков и лингвистики, 2(2).

13. Zakirovich, G. B. (2023). ACCURACY AND FLUENCY IN LANGUAGE TEACHING. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE &

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Issue 1. January 2024

INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 12(05), 19-25.

14. Gafurov, B. (2023). THE RELATIONSHIP BETWEEN CULTURE AND LANGUAGE IN LEARNING PROCESS. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(5), 55-63.

15. Gafurov, B. Z. (2023). REFLECTION OF STYLISTICALLY MARKED VOCABULARY IN ADVERTISEMENT TEXTS. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(5), 425-428.

16. FAYZULLAEVA, S. U. THEMATIC DIRECTIONS OF THE NATURE OF THE LYRICAL EVENING. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (5), 157-159.

17. Nizomitdinova, Z. A. (2023). GENDER LANGUAGE IN MASS-MEDIA. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(9), 646-648.

18. Nizomitdinova, Z. (2023). GENDER IN CONTEMPORARY LINGUISTICS. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 3(2), 124-126.

19. Низомитдинова, З. А. (2023). ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ГЕНДЕРНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ. Journal of new century innovations, 36(1), 6-9.

20. Shagiyazovna, R. D., Khairullaevich, N. L., Akhatovna, A. D., Bahadyrovich, R. B., & Abduazizovna, N. Z. (2022). Technique of Meaning-Formulation and Construction Mental Interpretations in Russian Language. Specialusis Ugdymas, 1(43), 10583-10596.

21. Mallaevna, O. N. (2022). The process of forming pedagogical ethics in students and its efficiency.

22. Mallaevna, O. N. (2022). The process of forming pedagogical ethics in students and its efficiency.

23. Очиллова, Н. М. (2017). СОВРЕМЕННЫЕ ТРЕБОВАНИЯ К УРОКАМ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА. Ученый XXI века, 43.

24. TimurRustamovich, A. (2023). CLASSROOM AND EXTRACURRICULAR FORMS OF STUDYING POETRY BY AS PUSHKIN AT SCHOOL. Gospodarka i Innowacje., 41, 226-232.


**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Issue 1. January 2024

25. Ayupov, T. (2024). METHODOLOGY FOR TEACHING FAIRY TALES AT SCHOOL. Академические исследования в современной науке, 3(1), 5-9.

26. Nazirova, M., Matmusayeva, Z., Asqarova, X., Olimova, S., & Ayupov, T. (2024). BLACK CHICKEN, OR UNDERGROUND RESIDENTS" BY ANTONY POGORELSKY IN HISTORICAL AND LITERARY CONTEXT. Development and innovations in science, 3(1), 5-11.

27. Ayupov, T. R. (2023). METHODS OF TEACHING LITERARY FAIRY TALES IN HIGH SCHOOL. Gospodarka i Innowacje., 42, 282-286.



**Research Science and
Innovation House**